

Shayxontohur tuman kasb-hunar maktabi “Maxsus fanlar”, kafedrasi PhD,

Muxammadiyev Umarali Sheraliyevich taqrizi ostida

O'QUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH STRATEGIYASINI LOYIHALASHTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xasanov Mansur Abrarovich

Toshkent shahar Shayxontohur tuman Politexnikumi,

Ishlab chiqarish ta'lifi bo'yicha direktor o'rinnbosari

Annotatsiya: O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lif jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida, o'quvchilarga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni maqsad qiladi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun didaktik imkoniyatlar-o'qitishning usul va vositalarini, o'quv jarayonini tashkil etish metodlarini o'ylab topish zarur. Didaktik imkoniyatlar orqali kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishslash uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni oshirish mumkin.

Kalit so'zlar: Kasbiy tayyorgarlik, didaktik imkoniyatlar, o'qitish metodlari, interaktiv o'qitish, amaliy ko'nikmalar, innovatsion texnologiyalar, modul o'qitish, kasbiy kompetentsiyalar, stajirovka va amaliyot, kreativ fikrlash, o'quv jarayoni dizayni, individual yondashuv, mehnat bozoriga moslashuv, kasbiy motivatsiya, tezkor ta'lif texnologiyalari.

KIRISH

Ilm-fan, mehnat bozoridagi talabni o'zgarishi, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi professional ta'lif tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Ta'lif tizimining transformatsiyasi davlat va jamiyatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatlari ta'lif olishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro'y beradi. O'quv jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lif tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lif-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lif tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlaniruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lif jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur. Buning natijasida ta'lif sifat samaradorligiga erishiladi va mehnat bozorida kasb-hunar maktablari o'quvchilarini raqobatlasha olishiga olib keladi.

ASOSIY QISM

Ta'lif o'quvchini bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lif jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki, bu jarayonda o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularni bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lif jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Mehnat bozorida raqobatni xaddan oshib ketishi kasb-hunar maktablarini o'quvchilariga o'z kasblari bo'yicha yuqori kompetensiyaga ega bo'lishlarini talab etadi. Buning uchun ta'lif

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

sifatiga alohida e'tibor berib, o'rganilayotgan kasblarga sinchikovlik bilan yondashish zarur. Natijadorlikka erishishda hozirgi zamon pedagogikasida alohida o'rin tutadigan didaktik yondashuvlarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Kasbga o'rgatish jarayonida ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy-amaliy asoslarning o'rni katta.

O'quvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida didaktika umumiyy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri o'quvchining bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Kasbni o'zlashtirish algoritmlari mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lim va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiyy usullarini belgilab berishi kerak. Ayni vaqtida, alohida predmetlarni o'qitish aynan mutahasislik fanlarini o'qitish metodikasi kasb-hunar maktabi amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta'lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalarini loyihalashda ya'ni mutahasislik fanlarini o'qitish va o'rgatishda didaktika ta'lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O'qituvchi biror mutaxasislik moduli bo'yicha o'quvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlash maqsadi sari intilar ekan, ma'lum protseduralarning bajarilish namunasini amalda ko'rsatadi. Bu aynan kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'ta muhim jarayon hisoblanadi. Ayni damda, u o'quv jarayonining barcha bosqichlarida o'quvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida amaliy, tajriba va kuzatuvlari asosida innovatsion bilimlarni o'zlashtiradi. O'quvchilarga chuqur va mustaqil o'zlashtirishlari, o'rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llashlari uchun maxsus amaliy topshiriklar beriladi.

Mutahasislik fanlarini didaktik vositalardan foydalanim o'tkazish o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi. Shuning uchun didaktik vositalardan professional ta'lim tizimida ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlarni tayyorlash hamda o'tkazish nazarda tutilgan. Buning uchun dastlab o'quv dasturi, mavzu mazmuni yaxshilab o'rganilib, elektron o'quv darsligi yoki qo'llanmasi, virtual ko'rgazmalar, didaktik materiallar tayyorlanadi. Bunda asosan nazariy ma'lumotlarni bayon etish, kasb-hunar maktabi o'quvchilarida nazariy-texnik tafakkurni rivojlantirish, kurs mazmuniga kiziqishni uyg'otish, mutaxassislikka tayyorlanish motivlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Didaktik imkoniyatlар yordamida o'quv jarayonlarini sifatli tashkil etish:

- didaktik vositalarni o'quv mashg'ulotiga tayyorlash;
- didaktik vosita ma'lumotlarini idrok etishga o'quvchilarni tayyorlash;
- didaktik vositalar mazmunidagi materiallarni namoyish etish uchun o'qituvchining qisqa izohi;

-didaktik vositalardagi ma'lumotlarni o'quvchi xotirasida mustahkamlashni tashkil etish; didaktik vositalar mazmunidagi ma'lumotlarni to'ldirish uchun uyga topshiriqlar berish va h.k.

Bulardan tashqari o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida mutaxassisliklari bo'yicha o'rganiladigan har bir fanlarning mazmunida tegishli sohalarning eng so'nggi texnika va texnologiya yutuqlari aks ettirilishi, amaliyotlarni ilmiy asosda tashkil qilish, mutaxassislikni o'rgatishning samarali shakllari va metodlari, zamonaviy vositalarini ishlab chiqish hamda tatbiq etish, kelajakda bitiruvchilarni o'zlari tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mehnat bozorida hech qiyalmasdan o'z o'rinalarini topa olishlariga zamin yaratadi.

Hozirgi paytda ta’lim mazmunini belgilovchi o‘quv-meyoriy hujjatlar: malaka talablari, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirishda quyidagi o‘ziga xos jihatlarini e’tiborda tutish muhimdir:

- mutaxassis kadrning malaka talablarini ishlab chiqishda ish beruvchilar talablarini hisobga olishni va ularning bevosita ishtirot etishini ta’minalash;
- o‘quv jarayonini tashkil etishda ish beruvchi ishlab chiqarish korxonalarining xususiyatlari va talablarini inobatga olish;
- o‘quv jarayonini amalgalashishda ta’lim va ishlab chiqarishning bevosita va bilvosita aloqadorligini ta’minalash;
- fan dasturlari mazmunini ishlab chiqarish va mehnat jarayoni mazmuniga hamda kasbiy faoliyat turlariga mosligini ta’minalash;
- o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholash jarayonlariga ish beruvchilarning aloqadorligini ta’minalash kabilardir.

O‘quv fan dasturlari mazmunini takomillashtirishda quyidagi omillarga e’tiborni qaratmoq lozim:

- ta’lim va tarbiyaning maqsadli yo‘naltirilganligiga;
- yoshlarni har tomonlama barkamol qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o‘quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma’naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etishga;
- mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishi, xususiyatlari va rivojlanish yo‘nalishlariga;
- malaka talablarda belgilangan kasbiy faoliyat turlari va mazmunini to‘liq qamrab olinishiga;

- fan dasturidagi har bir mavzu bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni baholashda;
- ta’lim-tarbiya tamoyillari va qonuniyatlariga amal qilinishiga.

Malaka talab va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda mutaxassis kadrlarda shakllantirilayotgan amaliy ko‘nikmalar darajasining o‘rganilayotgan o‘quv fanlari mazmuniga, o‘rganish davriga mos tushishini e’tiborga olish lozim.

O‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashtipishning didaktik imkoniyatlari ma’lumotlarini idrok etishga o‘quvchilarni tayyorlash uchun, avvalo, didaktik vosita namoyish qilinishdan oldin, unda aks ettirilgan ma’lumotning o‘quv fani, o‘quv dasturi, o‘quv mavzusi tizimida tutgan o‘rnini o‘quvchilar diqqatiga havola etish uchun ular haqida izoh berish talab etiladi.

Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarni didaktik vositalar majmui mazmunini idrok etishda tayyorlar ekan har doim va hamma vaqt:

- didaktik vosita mazmunidagi ma’lumotlar bilan o‘quv mavzusi ma’lumotlarining uzviy birligi;
- didaktik vositaning ma’lumotlarini xato o‘zlashtirilishini oldini olishni;
- didaktik vosita yordamida o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish, ko‘nikma va malakalarni kengaytirish kabi masalalarni yoddan chiqarmaslik lozim.

O‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashtipish jarayonida har bir yo‘l va vosita o‘qituvchi-master tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko‘rinarli qo‘sghan hissasi tomoni bilan baholanishi kerak.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Sifat samaradorlikka erishishdagi ketma-ketlikni optimalligini talqin qila turib, e'tiborni nafaqat unga, uni qo'llashni nazarda tutuvchi vaziyat yoki sharoitlarga qaratish zarur. Gap shundaki, ketma-ketliklar odatda formula emas, boshqaruv xususiyatga ega bo'ladi, madomiki ularni qo'llash mumkin bo'lgan, ta'lim jarayoni sharoitida ayrim noaniqliklar bor. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o'quv vaziyatida qo'llab, muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma'lum bo'lgan ta'lim berishni didaktik imkoniyatlari muallifida, shuni ketma-ketliksiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turlitumanlikdan mavjud sharoitda va o'quv rejasida berilgan vaqtida ko'zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta'minlaydigan, so'ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta'lim berish texnologiyasining - yagona majmuuni loyihalashtirish mumkin bo'ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yo'l va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda albatta ta'limning asosiy subyekti bo'lmish professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda bir qator standartlar taklif etilmoqda. Bular quyidagilar:

- mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash;
- zamon talablaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;
- kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzlusizligini ta'minlash kabilardan iborat.

Endilikda hayot davomida uzlusiz ta'lim olishda individual ta'lim olish trayektoriyasini loyihalash, kasbiy rivojlanish va malaka oshirishda ta'limning jozibadorligini ta'minlashda rasmiy, norasmiy va informal ta'limning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni pedagogik jihatdan asoslash talab etiladi.

Xalqaro tajribalar asosida ta'limni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish quyidagi strategik imkoniyatlarni taqdim etadi:

- bo'lajak mutaxassisning kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan uzviylikni ta'minlashi;
- ta'lim oluvchining kasbiy faoliyat sirlarini egallashi va bilimlarni pedagog yordamisiz mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- ta'lim oluvchilarning mustaqil kasbiy faoliyatdagi yuzaga keladigan xatoliklarni oldindan bartaraf etish imkoniyatini yaratilishi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari, ta'lim jarayonida tashkil etilgan darslarning, mashg'ulotlarning va metodik amallarning boshqa bo'limlari orqali ta'lim berishning maqsadlari va prinsiplari bilan bog'liqidir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish modelining maqsad komponentida malaka talablari asosida o'qituvchining kasbiy komponentlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy turlari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyat strukturasi, komponentlar tuzilmalari yoritilgan.

Bugungi kunda talim jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish uchun uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish orqali amalga oshirilishi lozimligi pedagogika ilmi va amaliyotida o'z isbotini topmoqda.

XULOSA

O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda didaktik imkoniyatlar muhim ahamiyatga ega. Didaktik imkoniyatlar o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash va ularni real ish sharoitlariga tayyorlashda yordam beradi. Bularning barchasi o'qitishning turli metod va yondashuvlarini, zamonaviy texnologiyalarni, interaktiv va amaliy o'qitish usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Didaktik imkoniyatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlari hisobga olinishi zarur. Kasbiy tayyorgarlikda interaktiv o'qitish metodlari, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, stajirovka va amaliyotlarni o'tkazish orqali o'quvchilarning professionallik darajasi oshadi. Bundan tashqari, texnologiyalardan, masalan, onlayn ta'lif platformalaridan va virtual laboratoriyalardan samarali foydalanish, o'quvchilarga kasbiy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni kengaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, didaktik imkoniyatlar o'quvchilarni mehnat bozoriga tayyorlashda, ularga kasbiy motivatsiyani oshirishda ham muhim rol o'yndaydi. O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda metodik yondashuvlarning samarali qo'llanilishi, ta'lifning sifatini oshiradi va o'quvchilarning kelajakdagagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatlariga turtki beradi.

Umuman olganda, o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda didaktik imkoniyatlarning to'g'ri qo'llanilishi ta'lif tizimining sifatini oshiradi, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni kelajakdagagi ish hayotiga muvaffaqiyatli moslashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khamidov, O. (2018). "Ta'lif va tarbiyada innovatsion yondashuvlar". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Raxmatov, Sh. (2019). "Kasbiy ta'lifni tashkil etishning metodik asoslari". Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Zahidov, B., & Karimov, M. (2021). "O'quvchilarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida didaktik yondashuvlar". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.
4. Nazarova, M. (2020). "Didaktik metodlar va texnologiyalar". Toshkent: Nashr.
5. Ismoilova, G. (2022). "Kasbiy ta'lifda innovatsion pedagogik texnologiyalar". Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Shokirov, J. (2017). "Ta'lifda didaktik vositalar: nazariya va amaliyot". Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
7. Davronov, E. (2020). "Pedagogik texnologiyalar va kasbiy ta'lif". Toshkent: Ta'lif nashriyoti.
8. Yusupov, O. (2021). "Kasbiy ta'lifda interaktiv metodlar va ularning samaradorligi". Toshkent: Ta'lif va tarbiya nashriyoti.
9. Kudratov, R. (2022). "Mehnat bozoriga moslashuvda ta'lifning roli". Toshkent: Ilm-fan.
10. Bashirov, F. (2019). "O'qitishning didaktik asoslari". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.